

ИҚТИСОД ДИСКУРСИГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА)

*Арчабаева Наргиза Насимовна, ўқитувчи,
Жиззах давлат педагогика университети, Ўзбекистон
E-mail: archabayevan@gmail.com*

Аннотация: Мақолада терминология соҳаси, чоғиштирилаётган тиллар терминологиясининг ўзига хос жиҳатлари ҳамда айрим иқтисод терминларининг лингвистик ва экстралингвистик омиллари назарий жиҳатдан ўрганилади. Муаллиф томонидан иқтисод дискурсида оид терминларнинг ижтимоий ҳаётимизда тобора оммалашиб бораётганлигига эътибор қаратилади.

Таянч сўзлар: Терминология, термин, иқтисод дискурси, амалий тилшунослик, илмий термин, оммабоп термин, сўзлашув, нутқ.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ДИСКУРСА (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

*Арчабаева Наргиза Насимовна,
Преподаватель,
Джизакский государственный педагогический университет,
Узбекистан
E-mail: archabayevan@gmail.com*

Аннотация: В статье теоретически изучается область терминологии, особенности терминологии смешанных языков, а также лингвистические и экстралингвистические факторы некоторых экономических терминов. Автор обращает внимание на растущую популярность терминов экономического дискурса в нашей общественной жизни.

Ключевые слова: Терминология, термин, экономический дискурс, прикладная лингвистика, научный термин, народный термин, разговор, речь.

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF ECONOMIC DISCOURSE TERMS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEKI LANGUAGES)

*Archabaeva Nargiza Nasimovna,
Teacher, Jizzakh State Pedagogical University,
Uzbekistan
E-mail: archabayevan@gmail.com*

Annotation: The article theoretically studies the field of terminology, specific aspects of the terminology of mixed languages, and linguistic and extralinguistic factors of some economic terms. The author draws attention to the growing popularity of economic discourse terms in our social life.

Key words: Terminology, term, economic discourse, applied linguistics, scientific term, popular term, conversation, discourse.

Жаҳон тилшунослигида турли тиллар терминологик тизими, хусусан, иқтисод терминларини ривожланишига таъсир этувчи лингвистик ва экстралингвистик омиллар, чоғиштирилаётган тиллар терминологиясининг изоморфик ва алломорфик хусусиятларини аниқлашга оид бир қатор тадқиқотлар олиб борилмоқдалиги эътиборга молик. XX аср тилшунослигида тушунча ва маъно сифатида терминга таъриф беришда турлича, хилма-хил ёндашувлар мавжудлигини кўришимиз мумкин. Хусусан, рус филологи А.В.Суперанская фикрича, “Термин муайян касбий, профессионал фаолиятда қабул қилинган ва алоҳида соҳаларда, шароитларда ишлатиладиган махсус сўз. Термин профессионал билимларнинг муайян соҳаси тизимига кирувчи тушунча бўлиб, у сўз билан ифодаланади. Термин махсус мақсадлар учун мўлжалланган тилнинг асосий тушунчавий элементиدير. Ўз терминологик майдони ичида термин бир маънода қўлланилади. Турли майдонларнинг бир хил айтиладиган терминлари – омонимлар тизимиدير. Тўғри тушунилиши учун термин махсус дефиниция (аниқ илмий таъриф)ни келтириб чиқаради”[1.56.]. Терминларнинг мавжуд лексик-семантик хусусиятлари соҳавий терминологиянинг шаклланишида муҳим фактор бўлиб хизмат қилади.

Терминология кенг маънода, умумадабий лексиканинг бир қатлами бўлиб, ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида қўлланиладиган терминологик бирликлар мажмуидир. Тор маънода, фан ва техника, ишлаб чиқаришнинг маълум бир соҳасига оид терминлар тизими йиғиндисини ташкил этади[2.21.]. Соҳавий терминологиянинг шаклланиши фан тараққиётининг таркибий қисми, фаншуносликнинг муҳим элементи ҳисобланади. Terminologik tizimning milliy-madaniy muammolari hozirgi kunga kelib, ko‘plab tilshunoslarning tadqiqot ob’ektiga aylanayotganligi bejiz emas, albatta. Buni oxirgi yillarda til va madaniyat muammosiga bo‘lgan e’tibor va qiziqish antropologik paradigmada rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Tilning inson bilan o‘zaro, chambarchas bog‘liqligini hisobga olgan holda uning ongi, dunyoqarashi, ruhiy va amaliy faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan antropologitilshunoslik nazariyasining frazeologik tizimga tatbiq etish zaruriyati tabiiy va muhim voqelikdir [3].

Машҳур инглиз олими Х.Хуеллнинг қайд этишига ко‘ра, терминология муаууан фанга оид терминлар ёки техника соҳасида қо‘лланадиган со‘злар йиғиндисидир.

Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz[4]. Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniq obektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin[5.4].

Ўзбек тилшунос олими Х.Саримсоқов фикрича, тил ва жамият ўртасида узлуксиз боғлиқлик мавжуд. Вақт ўтган сари жамиятдаги реал воқеликлар янги номга эга бўлади, эскилари эса истеъмолдан чиқиб кетади ёки қўлланилиши жараёнида семантик ўзгаришларга дуч келади. Натижада, тил янада кенг луғавий имкониятларга эга бўлади[2.12]. Чоғиштирилаётган тиллар терминологиясининг ўзига хос жиҳатлари сифатида ўзаро қиёсланаётган терминларнинг лингвистик ва экстралингвистик омилларини ҳар томонлама фарқлашни назарда тутади.

Мамлакатимиз тилшунослигида турли тиллар терминологик тизими, хусусан, иқтисод терминларини ривожланишига таъсир этувчи лингвистик ва экстралингвистик омиллар, чоғиштирилаётган тиллар терминологиясининг изоморфик ва алломорфик хусусиятларини аниқлашга оид О.С.Ахмедов, Д.Худойкулова, Ч.С.Абдуллаева, Х.А.Саримсоқов, Д.Х.Кадирбекова, Ғ.Абдурахмонов, П.Нишонов, С.А.Азизов ҳамда Х.Д.Палуановалар томонидан бир қанча тадқиқотлар олиб борилган. Мана шундай тадқиқотлар иқтисод соҳасига оид терминларни тартибга солишни, таржимада уларнинг энг оптимал вариантлари, лексик-семантик хусусиятларини аниқлаштиришни ҳамда нормативлаштиришни тақозо қилмоқда. Бу эса иқтисод дискурсига оид терминларнинг электрон таржима луғатларини яратишни долзарблаштиради. Жумладан, жамият иқтисодий ҳаёт соҳаси ҳам ниҳоятда мураккаб бўлиб, мазкур соҳа билан боғлиқ иқтисодий терминларнинг ўзгариб боришини кўришимиз мумкин. Шу ўринда, иқтисодий категориялар иқтисодий муносабатларнинг иқтисодий ҳодиса ва воқеанинг бирор-бир жиҳати жиҳати тўғрисидаги илмий тушунчалардир ёки уларнинг илмий-назарий инъикосидир. У ёки бу иқтисодий муносабат, иқтисодий қонун, иқтисодий жараён, иқтисодий тасаввур (билим) ҳосил қилиш учун уларни ифодаловчи иқтисодий тушунчаларга (категорияларга) мурожаат қилинади[6.21.].

Terminologiya keng ma'noda, umumadabiy leksikaning bir qatlami bo'lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llaniladigan terminologik birliklar majmuidir. Tor ma'noda, fan va texnika, ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasiga oid terminlar tizimi yig'indisini tashkil etadi[2.48].

Ingliz va o'zbek tillarida iqtisod diskursiga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish hozircha batafsil va majmuaviy tarzda o'rganilmaganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, ingliz tilidagi iqtisodiy tushunchalar o'zbek tilida to'la qamrab olinmaganligi bilan, sayoz bayon qilinganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Tadqiqotchi N.B.Abdurashitova fikricha, frazeologik birlik (yoki turg'un ibora) dunyo manzarasini aks ettiradigan lisoniy vositadir. Insonning ma'lum bir ob'ektga bo'lgan munosabati iboralar orqali voqelanadi, idrok etuvchi shaxs hissiyotini namoyon qiladi va atrofda kechayotgan voqea- hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Ma'lumki, turg'un iboralar har bir xalqning noyob boyligidir. Iboralar avloddan avlodga madaniy merosni, qadriyatlarni yetkazadigan muhim manba hisoblanadi. Ularning ma'nosida afsonalar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar, hayot tarzi va boshqa qimmatli milliy-madaniy va ma'rifiy-diniy axborot aks etadi. Bundan tashqari, iboralar tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishi ham mumkin. Ularning mazmunida hatto diniy bilimlar va dinga oid tushunchalar ham o'z aksini topgan. Tilshunoslikda aksariyat hollarda iboralarga nisbatan frazeologik birlik sifatida qaraladi. Frazeologik tizimning milliy-madaniy muammolari hozirgi kunga kelib, ko'plab tilshunoslarning tadqiqot ob'ektiga aylanayotganligi bejiz emas, albatta[7,67.].

Ingliz tilidagi *War-torn economy* (tarjimada esa, urush tufayli yirtilgan iqtisod) iborasi o'zbek tili frazeologiyasida o'z muqobilini yoki analogini topa olmaydi, chunki u milliy xususiyatga ega. Shu bois, uni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda faqatgina leksik tarjimaga asoslanib, mazmunini tinglovchiga yetkazish mumkin. Shuning uchun ham mazkur ibora o'zbek tilida urush tufayli zaiflashgan iqtisod frazasi bilan muqobil hisoblanadi. Ba'zi iqtisodga oid tushunchalarning semantikasi ikkala tilda ham bir biriga muvofiq keladi. Masalan, ingliz tilida *devolution/revolution of the currency*[8,96.] iborasi ma'lum bir pul birligi qiymatining masalan, so'mning boshqa pul birliklari qiymatiga nisbatan tushishi yoki ko'tarilishiga nisbatan ishlatiladi va bu frazaning o'zbek tilida analogi mavjud. Ya'ni, leksik tarjima qilinganda to'g'ridan to'g'ri muqobilini topa oladi.

Iqtisodiyoti zaif bo'lgan davlatlarga nisbatan iqtisodiyotini izohlashda ko'pincha ingliz tilida *ailing economy*[8,97.] iborasi qo'llaniladi. Bunday iborani ifodalovchi frazeologiya o'zbek tilida mavjud bo'lmasa-da, o'zbek tili frazeologik zahirasida bunday iborani ifodalovchi ehtimolli muqobillari sifatida quyidagi terminlar faol ishlatiladi: nochor iqtisod [9], qoloq iqtisod [10], zaif iqtisod [11] va boshqalar.

O'zbek va ingliz tillarida iqtisodga oid yondosh so'zlar (collocations), frazali strukturalar (idiomatic structures) har doim ham o'girilganda o'z analogini topmasa ham leksik-semantik ma'nosiga asoslanishi lozim bo'ladi. Chunki, Yangi O'zbekistonda yuqori malakali iqtisodchilar tayyorlab chiqarish hamda respublikamizda xalqaro va xorijiy iqtisodiyot amaliyotini hisobga olgan holda milliy rivolanishimiz uchun milliy terminologiyani ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish lozim bo'ladi. Shu asosda iqtisodiy o'quv terminologik lug'atlarni ishlab chiqish lozim. Bunday lug'atlarga iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan yondosh so'zlar, iboralar, evfemizmlar kiradi. Masalan, pulsiz qolish, ya'ni bir chaqasiz qolish ma'nosi

ingliz tilida - *I am broke* yoki *I am skint* iborasi bilan qoʻllaniladi. Bu iboralar norasmiy hisoblanib asosan ogʻzaki nutqda yoki koʻcha tilida foydalaniladi.

I was broke at the end of last month. - Oʻtgan oyda hech qanday pulsiz qoldim.

Bu iborani aksini ifodalashda *I am rolling in it this month* oʻzbek tilida Bu oyda pulga koʻmilib qoldim iborasiga toʻgʻri keladi.

Yana ingliz tili nutqida faol ishlatiladigan idiomatik struktura *to make ends meet* – ehtiyojlarni qondirish oʻzbek tilida roʻzgʻor tebratish, qora qozon qaynatish kabi iboralarga anonim boʻla oladi.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш ўринлики, жамиятдаги ахборот оқимининг жадаллашуви ҳамда технологиянинг такомиллашуви термин ва тотермин сўзлар ўртасидаги чегаранинг бир-бирига яқинлашувига сабаб бўлади. Фан ва техника ютуқларининг оммавийлашуви эса неологизмларни терминларга ёки мунтазам шаклда ишлатиладиган сўзларга айлантиради. Хусусан, иқтисод соҳасига доир терминларни ўрганиш, бир томондан, тилнинг лексик қатламини ўрганишдан иборат бўлса, иккинчи томондан, тилнинг лексик қатламида мавжуд тор доирадиги неологизмларни илмий-назарий ўрганиш ҳам ҳисобланади. Терминларни оммабоплиги ижтимоий онгда ўзлашган сўзларни кенг қўлланилиши билан боғлиқ бўлади. Бу эса ўз-ўзидан қиёсланаётган тилларнинг ўзаро тадқиқини заруриятга айлантиради. Адабий тилда қанчалик қардош бўлмаган тиллардаги сўзларнинг кириб келиши билан прагма-лингвистик имкониятларнинг бойиб боришини кўришимиз мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

(References)

1. Суперанская А.В. Общая терминология. –М.; УРСС, 2003. –С. 56.
2. Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи // Филология фанлари фалсафа доктори (PhD) ... дис. автореферати: 10.00.06- Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик. -Тошкент 2020. –Б. 21. -48 б.
3. Ergasheva G.I. Ingliz va oʻzbek tillar frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiёsiy-tipologik tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi diss. – Toshkent: OʻzMU, 2011.– 154 b.
4. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. - London, 1967
5. Dadaboyev H. Oʻzbek terminologiyasi. – Toshkent, TDOʻTAU, 2019. – В. 4.
6. Ёўлдошев Қ., Муфтайтидинов Қ. Иқтисодий билим асослари. –Т., Ўқитувчи, 1999. –Б. 21. -256 б.

7. Abdurashitova N.B. Ingliz va o‘zbek tillarida huquqiy muloqotga oid iboralarning lingvistik xususiyatlari //Xorijiy filologiya, 2019 yil, №2. –B. 67.
8. Michael McCarthy, Felicity O’Dell. English Vocabulary in Use: vocabulary reference and practice. Third edition. Cambridge university press, 2017. - 300 P.
9. Karimov I.A. Sobiq tuzum davrida O‘zbekiston yarim mustamlaka respublika edi//<https://kun.uz/news/2016/06/30/islom-karimov-sobik-tuzum-davrida-uzbekiston-arim-mustamlaka-respublika-edi>
10. Shamsieva F.M. Rivojlanishni innovatsion yo‘liga o‘tish – iqtisodiy xavfsizlik strategiyasining asosidir// Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –Toshkent, TDIU, 2019.<https://tsue.scienceweb.uz>
11. Bahriev K. Raqamli iqtisodiyot: Kuchli birni yengadi, aqlli mingni...
<https://human.uz/12/53/1197>